XALQ DEPUTATLARI CHIROQCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Chiroqchi +998 99 685 8626 kengashchiroqchi@gmail.com

2025-yil 15-yanvar VI-89-4-4-66-K/25 Chiroqchi tumani

Chiroqchi tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Respublika aerogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo‘linmasining 2024-yil 1-avgustdagi Chiroqchi tumani hokimiga yuborilgan 01-102-sonli xat orqali ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Chiroqchi tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 8-avgustdagi 01/112-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Chiroqchi tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Chiroqchi tumani bilan chegaradosh boʻlgan Kitob, Shahrisabz, Yakkabogʻ, Qamashi, Koʻkdala tumanlari va Samarqand viloyati oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman ma’muriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizig’i hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq, yoʻl va boshqa tabiiy hamda sun’iy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining tuman boʻlimi boshligʻiga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Kengash raisi YUSUPOV FAYZULLA YAKUBOVICH

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani
Kengashining
2025-yil 15-yanvardagi
VI-89-4-4-66-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanining chegara
TAVSIFI

Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari chegara chizig‘idagi, Ko‘kdala va Chiroqchi tumanlari chegaralari tutashgan joydagi dala tuproq yo‘lining shimol tomonida joylashgan nuqtani boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. WGS-84 koordinatalar tizimda *(shimoliy kenglik* 39°22'16,947" *, sharqiy uzunlik* 66°27'37,704"*).*

A dan B gacha Samarqand viloyati yerlari bilan 1-5- nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

1 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 5225 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1779 metr, so‘ng umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4017 metr masofani o‘tib,so‘ngra tog‘ suv ayirgichlari bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2445 metr, keyin soyning suv oqimi bo‘ylab umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 7359 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°23'30,298", sharqiy uzoqlik* 66°36'44,199"*).*

2 - nuqtadan chegara chizig‘i Zarafshon tog‘ tizmasi bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6684 metr, keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1166 metr,so‘ng umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 9217 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 39°27'5,833"*, sharqiy uzoqlik* 66°45'0,220"*).*

3 - nuqtadan chegara chizig‘i Zarafshon tog‘ tizmasi bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1659 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 861 metr , so‘ng janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2130 metr, so‘ngra umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5147 metr masofani o‘tib,4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 39°24'56,456"*, sharqiy uzoqlik* 66°49'23,140"*).*

4 - nuqtadan chegara chizig‘i Zarafshon tog‘ tizmasi bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 180 metr masofani o‘tib, 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 39°25'0,968"*, sharqiy uzoqlik* 66°49'27,800"*).*

B dan D gacha Kitob tumani yerlari bilan 5-14 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

5-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ tizmasi suv ayrig‘ichlari bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2063 metr keyin quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 6056 metr masofani o‘tib, so‘ng tog‘ tizmasining suv

ayrig‘ichlari bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3321 metr masofani o‘tib ,so‘ngra umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 807 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 827 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi bo‘yidagi 6-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°19'34,596"*, sharqiy uzunlik* 66°46'27,735"*).*

6-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ tizmasi suv ayrig‘chlari bo‘ylab avval janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3165 metr, keyin umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 4543 metr masofani o‘tib,so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1293 metr masofani o‘tib, keyin tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burulishlarini hisobga olgan holada 4040 metr masofani o‘tib bo‘yidagi 7-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°17'33,650" *, sharqiy uzunlik* 66°39'5,377"*).*

7-nuqtadan chegara avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 56 metr masofani o‘tib keyin quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1393 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 879 metr,so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 576 metr, masofani o‘tib soy bo‘yidagi 8-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°16'8,694"*, sharqiy uzunlik* 66°38'43,469"*).*

8-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3088 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2717 metr masofani o‘tib, avval soyning suv oqimi bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 418 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, so‘ng janubiy yo‘nalishda 347 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 9-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°13'17,028"*, sharqiy uzunlik* 66°36'45,909"*).*

9-nuqtadan chegara chizig‘i avval soyning suv oqimi bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3116 metr, keyin umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 466 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 76 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 79 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 73 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 10-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°11'44,961"*, sharqiy uzunlik* 66°37'54,741"*).*

10-nuqtadan chegara chizig‘i avval soyning suv oqimi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 105 metr , keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 597 metr, so‘ng janubiy yo‘nalishda 1085 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 11-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°10'53,684"*, sharqiy uzunlik* 66°38'11,648"*).*

11-nuqtadan chegara chizig‘i avval dala tuproq yo‘lning sharq tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3574 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 394 metr masofada soy bo‘yidagi 12-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°9'1,175"*, sharqiy uzunlik* 66°39'21,335"*).*

12-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 248 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 42 metr,so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 572 metr masofani o‘tib, so‘ngra dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 65 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 938 metr masofani o‘tib so‘ng latokning suv oqimiga qarshi avval sharqiy yo‘nalishda 525 metr, so‘ngra sharqiy-

janubiy-sharqiy yoʻnalishda 150 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 13-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°8'35,314"*, sharqiy uzunlik* 66°40'58,430"*).*

13-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 85 metr , keyin sharqiy yoʻnalishda soyga tutashadi va soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan 171 metr masofani oʻtib, janubiy yoʻnalishda 96 metr, janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 34 metr, gʻarbiy yoʻnalishda 120 metr, janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 62 metr, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 75 metr, shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 61 metr, sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 104 metr masofani oʻtib ,soʻngra zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval sharqiy yoʻnalishda 169 metr, sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 810 metr, sharqiy yoʻnalishda 54 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 14-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°8'17,421"*, sharqiy uzunlik* 66°41'45,360"*).*

D dan E gacha Shahrisabz tumani yerlari bilan 14-18 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

14-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab janubiy yoʻnalishda ariqning barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2605 metr , keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 373 metr soʻng ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 2178 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 658 metr masofani oʻtib keyin tomorqa devori boʻylab gʻarbiy yoʻnalishda 253 metr masofani oʻtib ariq boʻyidagi 15-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°6'20,920"*, sharqiy uzunlik* 66°40'30,514"*).*

15-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda kichik jar soyining suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2457 metr, keyin toʻgʻri chegara chizigʻi orqali janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 53 metr masofada Eskianhor kanalini kesib oʻtib, soʻng qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 287 metr masofani oʻtib, soʻngra umumiy janubiy yoʻnalishda ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olib xoʻjaliklararo ichki yoʻlini kesib oʻtgan holda 874 metr masofani oʻtib, keyin ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1347 metr masofani oʻtib, soʻng ariqning suv oqimi bo ylab oʻng tomoni bilan avval umumiy janubiy yoʻnalishda 555 metr, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 217 metr, masofani oʻtib ariq boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°4'16,795"*, sharqiy uzunlik* 66°38'52,807"*).*

16-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 495 metr masofada Qashqadaryoni kesib oʻtib, keyin Qashqadaryoning suv oqimi boʻylab shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 768 metr,soʻng shimoliy yoʻnalishada 863 metr masofani oʻtib, daryo boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°3'18,789"*, sharqiy uzunlik* 66°38'46,207"*).*

17-nuqtadan chegara chizigʻi soʻngra toʻgʻri chegara chizigʻi orqali janubiy yoʻnalishda 182 metr masofada Tanxoz daryosini kesib oʻtib,keyin qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning avval janub tomoni bilan sharquy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 412 metr,soʻng janub tomoni bilan janubbiy-gʻarbiy yoʻnalishda 628

metr, janubiy yo‘nalishda yo‘lning sharq tomoni bilan 208 metr masofani o‘tib so‘ngra avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 755 metr keyin sharqiy yo‘nalishda 778 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°2'29,300"*, sharqiy uzunlik* 66°39'12,915"*).*

E dan F gacha Yakkabog‘ tumani yerlari bilan 18-28-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

18-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tigan holda dala tuproq yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 514 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 29 metr masofada Moskva kanalini kesib o‘tib, so‘ng latokga tutashadi va latokning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 375 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 104 metr, shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 246 metr, shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 60 metr hamda shimoliy yo‘nalishda 416 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval g‘arbiy yo‘nalishda 324 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 570 metr masofani o‘tib ariq bo‘yidagi 19-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°1'22,199"*, sharqiy uzunlik* 66°39'41,899"*).*

19-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqmiga qarshi o‘ng tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 44 metr masofani o‘tib, keyin ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni, janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 214 metr janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 52 metr, umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1655 metr masofani o‘tib, so‘ng zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 123 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 95 metr, va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 98 metr masofada zovurni kesib o‘tab ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval g‘arbiy yo‘nalishda 108 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 240 metr masofani o‘tib, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 422 metr,so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 237 metr masofani o‘tib ariq bo‘yidagi 20-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°0'49,403"*, sharqiy uzunlik* 66°37'55,763"*).*

20-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 212 metr,keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 78 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 104 metr,so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 797 metr masofani o‘tib, zovurga o‘tadi va g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan 1616 metr masofada Moskva kanalini kesib o‘tib,so‘ngra zovurga o‘tadi va janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 32 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 21-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°1'5,988"*, sharqiy uzunlik* 66°36'10,013"*).*

21-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 35 metr masofani o‘tib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 195 metr,keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 708 metr masofani o‘tib , so‘ng ariqqa tutashadi va shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan 360 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 189 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 111 metr masofani o‘tib, ariqqa o‘tadi va ariqning suv oqimi

boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 55 metr keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 948 metr, va gʻarbiy yoʻnalishda 63 metr masofani oʻtib ariq boʻyidagi 22-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°0'55,686"*, sharqiy uzunlik* 66°34'46,337"*).*

22-nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan 81 metr masofani oʻtib ,keyin zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval janubiy yoʻnalishda 135 metr, soʻng gʻarbiy –janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 337 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 79 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 779 metr, hamda shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 64 metr masofani oʻtib zovur boʻyidagi 23-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°0'58,313"*, sharqiy uzunlik* 66°34'4,437"*).*

23-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 69 metr, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1230 metr, keyin janubiy-gʻarbiy gʻarbiy yoʻnalishda 182 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda 158 metr, masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 24-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°0'15,245"*, sharqiy uzunlik* 66°33'34,884"*).*

24-nuqtadan chegara chizigʻi zovurining suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 221 metr, gʻarbiy yoʻnalishda 26 metr, janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 289 metr masofani oʻtib,keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 26 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 224 mert, janubiy-sharqiy yoʻnalishda yoʻlning sharq tomoni bilan 32 metr masofani oʻtib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1699 metr masofada oʻtib zovurga oʻtadi hamda zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 329 metr, janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 557 metr, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 720 metr, janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 305 metr masofani oʻtib , janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurining suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan 1250 metr, keyin toʻgʻri chegara chizigʻi orqali gʻarbiy yoʻnalishda 25 metr masofada latokka tutashadi va latokning suv oqimi boʻylab avval janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 143 metr va janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 106 metr masofa oʻtib latok boʻyidagi 25-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 38°58'6,695"*, sharqiy uzunlik* 66°30'59,688"*).*

25-nuqtadan chegara chizigʻi latokning suv oqimi boʻylab gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 740 metr, soʻngra gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 290 metr, janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 331 metr masofani oʻtib, soʻng toʻgʻri chegara chizigʻi orqali janubiy-sharqiy yoʻnalishda 32 metr masofada zovurga oʻtib keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 544 metr masofani oʻtib, soyga oʻtadi va umumiy gʻarbiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 679 metr masofani oʻtib, 4P-79 avtomobil yoʻli boʻyidagi 26-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 38°57'46,104"*, sharqiy uzunlik* 66°29'38,850"*).*

26-nuqtadan chegara chizigʻi 4P-79 avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 209 metr masofani oʻtib, keyin dala tuproq yoʻlining janub

tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 239 metr masofani o‘tib , yo‘l bo‘yidagi 27-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 38°57'41,451"*, sharqiy uzunlik* 66°29'29,569"*).*

27-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 456 metr masofani o‘tib, ariqqa o‘tadi va ariqining suv oqimi bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1499 metr masofani o‘tib keyin, to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy yo‘nalishda 79 metr masofada so‘ngra zovurni kesib o‘tib, so‘ng qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 345 metr masofani o‘tib, ariqqa o‘tadi va g‘arbiy yo‘nalishda ariqining suv oqimiga qarshi 772 metr masofani o‘tib, so‘ngra dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 127 metr, g‘arbiy yo‘nalishda 438 metr, g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 544 metr masofani o‘tib, keyin quruq chegara chizig‘i orqali avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 214 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yidagi 28-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 38°58'9,099"*, sharqiy uzunlik* 66°26'35,169"*).*

F dan G gacha Qamashi tumani yerlari bilan 28-34 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

28-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Qashqadaryoning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2944 metr masofani o‘tib daryo qirg‘og‘ida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 38°59'18,881"*, sharqiy uzunlik* 66°27'19,882"*).*

29-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda Qashqadaryoning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2466 metr masofani o‘tib daryo qirg‘og‘ida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°0'16,728"*, sharqiy uzunlik* 66°28'1,944"*).*

30-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda Qashqadaryoning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1802 metr masofani o‘tib, keyin ariqqa tutashadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 387 metr, shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 285metr, sharqiy yo‘nalishda 49 metr va shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalshda 429 metr masofani o‘tib dala yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomomni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 144 metr nasofani o‘tib ariqqa tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 989 metr masofani o‘tib dala yo‘liga tutashib yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 910 metr masofada qashqadaryoni kesib o‘tgan holda daryo qirg‘og‘ida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°2'10,340"*, sharqiy uzunlik* 66°28'15,104"*).*

31-nuqtadan chegara chizig‘i Qashqadaryoning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2350 metr masofani o‘tib daryo qirg‘og‘ida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°1'19,078"*, sharqiy uzunlik* 66°27'22,051"*).*

32-nuqtadan chegara chizig‘i avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 123 metr keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 369 metr,so‘ng umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 4811 metr masofani o‘tib so‘ngra ariqning suv

oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 132 metr masofani o‘tib ariq bo‘yidagi 33-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°2'58,885", *sharqiy uzunlik* 66°24'42,433"*).*

33-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining avval g‘arb tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 796 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1213 metr masofani o‘tib, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 1954 metr ,so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 1848 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yidagi 34-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°4'2,101", *sharqiy uzunlik* 66°21'52,730"*).*

G dan A gacha Ko‘kdala tumani yerlari bilan 34-1 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

34-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 1256 metr metr ,keyin quruq chiziq orqalai g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1307 metr masofani o‘tib, dala yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 837 metr masofani o‘tib, so‘ng tomorqa devori bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 274 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning avval g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 42 metr, hamda yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 680 metr ,so‘ngra yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 300 metr, janubiy yo‘nalishda 515 metr masofani o‘tib keyin yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 2789 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yidagi 35-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°4'57,856", *sharqiy uzunlik* 66°23'40,142"*).*

35-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 283 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi va shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 3164 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 1725 metr masofani o‘tib, so‘ng qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1215 metr, so‘ngra yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2130 metr masofani o‘tib, keyin quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1620 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tgan holda dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan yo‘nalishini o‘gartirmagan holda 1473 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yidagi 36-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°8'28,117", *sharqiy uzunlik* 66°27'37,716"*).*

36-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 584 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tuashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2052 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘liga tutashadi hamda yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 188 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda arqiqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 321 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 424 metr so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 819 metr masofani o‘tib so‘ngra quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 915 metr, keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda Qumdaryoni kesib o‘tib barcha burilashlarini hisobga olgan holda 2009 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi va

shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 288 metr, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 662 metr, so‘ngra umumiy shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2022 metr masofani o‘tib ariq bo‘yidagi 37-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°10'28,070"*, sharqiy uzunlik* 66°23'38,715"*).*

37-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i orqali sharqiy shimoliy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2781 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi va umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2689 metr keyin g‘arbiy yo‘nalishda 682 metr so‘ng shimoliy yo‘nalishda 1019 metr, masofani o‘tib ariq bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°12'59,039"*, sharqiy uzunlik* 66°23'43,524"*).*

38-nuqtadan chegara chizig‘i avval g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 393 metr keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 146 metr masofani o‘yib so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 2109 metr o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°13'5,675"*, sharqiy uzunlik* 66°22'5,198"*).*

39-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2073 metr masofani o‘tib keyin sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1370 metr masofani o‘tib ariq bo‘yidagi 40-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°14'13,349"*, sharqiy uzunlik* 66°22'51,667"*).*

40-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 3728 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 41-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°15'59,958"*, sharqiy uzunlik* 66°23'28,344"*).*


41-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 5012 metr masofani o‘tib, keyin dala yo‘liga tutashadi va yo‘lning avval janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 86 metr, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 4434 metr, so‘ngra yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1321 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°17'25,474"*, sharqiy uzunlik* 66°18'47,562"*).*

42-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Arabband kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 8025 metr, masofani o‘tib kanal bo‘yidagi 43-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°20'47,337"*, sharqiy uzunlik* 66°21'49,350"*).*

43-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Arabband kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 9027 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3223 metr masofani o‘tib 1-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°22'16,947"*, sharqiy uzunlik* 66°27'37,704"*).*

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani
ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

KARTOGRAFIK CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha	*Samarqand viloyati yerlari*
B dan D gacha	*Kitob tumani yerlari*
D dan E gacha	*Shahrisabz shahar yerlari*
E dan F gacha	*Yakkabog' tumani yerlari*
F dan G gacha	*Qamashi tumani yerlari*
G dan A gacha	*Ko'kdala tumani yerlari*

Shartli belgilar

1 — **Chegaraning burilish nuqtalari**

Viloyat chegaralari

Tumanlar chegarasi